

GAJK "O`zbekiston temir yo`llari"  
Toshkent temir yo`l muhandislari instituti

## **GRUNTLAR MEXANIKASI**

qurilish fakultetining 5580200 - "Bino va inshootlar qurilishi"  
5580200 - "Bino va inshootlar qurilishi (temir yo`l transporti)"  
5580600 - "Transport inshootlaridan foydalanish"  
5140900 - "Kasbiy ta'lim ["Transport inshootlaridan foydalanish", "Bino  
va inshootlar qurilishi", "Bino va inshootlar qurilishi (temir yo`l  
transporti)"]" bakalavriat ta'lim yo`nalishlari talabalari uchun amaliy  
mashg`ulotlarga doir uslubiy qo`llanma

Toshkent 2010

UDK 624.131

Gruntlar mexanikasi. **K.D. Salyamova, U.I. Raxmonov, N.A. Morskaya.**  
“ToshTYMI”, T.: 2010, 52 bet.

Uslubiy qo`llanma 5580200 "Bino va inshootlar qurilishi", 5580200 "Bino va inshootlar qurilishi (temir yo`l transporti)", 5580600 "Transport inshootlaridan foydalanish", 5140900 "Kasbiy ta'lim ["Transport inshootlaridan foydalanish", "Bino va inshootlar qurilishi", "Bino va inshootlar qurilishi (temir yo`l transporti)"]" bakalavr yo`nalishlari talabalari bilan "Gruntlar mexanikasi" fanidan amaliy mashg`ulotlarni olib borish uchun mo`ljallangan.

Har bir mavzu bo`yicha nazariyadan qisqacha ma'lumot, masala ishlash namunalari va masalalarni mustaqil ishlash uchun boshlang`ich ma'lumotlar keltirilgan. Uslubiy qo`llanmalarda masala ishlashda foydalanish uchun o`quv-uslubiy adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

Rasmlar 14, jadvallar 17, bibl. 8 nom.

Uslubiy qo`llanmalar "Ko`prik va tonnellar" kafedrası majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

***Taqrizchilar:*** t.f.d., prof. K. S. Sultanov; t.f.n., dot. Ch. S. Raupov

## Kirish

Qurilish fakulteti talabalariga "Gruntlar mexanikasi" faniga o`quv rejada 72 soat ajratilgan. Amaliy mashg`ulotlarga faqat 18 soat beriladi. Bu fan o`quv rejasining asosiy fanlaridan hisoblanadi. Shuning uchun talabalar amaliy mashg`ulotlarda ishlaydigan "Gruntlar mexanikasi" fanidan beriladigan masalalarga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Fanni o`qitish maqsadi talabalarga turli gruntlarning: mustahkamlik va fizik-mexanik xususiyatlari, injener inshootlari ta'sirida grunt qatlamlari harakati, ularda kuchlanishlarni taqsimlanishi, deformatsiyalanishini baholash grunt asoslarini mustahkamligi va turg`unligi haqida bilimlarni berish.

Amaliy mashg`ulotlarning mavzulari ma'ruza materiallariga bevosita bog`lanadi. Amaliy ishlar nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mo`ljallangan.

Har bir amaliy vazifa bo`yicha talabalarga materialni o`rganishi uchun mavzuga doir betlari ko`rsatilgan adabiyotlar ro`yxati beriladi. Masalalarga misollar keltiriladi va har bir talabaga o`z varianti bo`yicha masala ishlash taklif etiladi. Amaliy ishlar daftarda rasmiylashtirilib, ish yakunida talabalar tomonidan himoya qilinadi. Semestr oxirida daftarlar amaliyot o`qituvchisiga topshiriladi.

Semestrda 9 amaliy ish bajariladi. quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1) tabiiy dispers gruntlar sinfi RST O`z 25100-95 bo`yicha qumlar tavsifi;
- 2) tabiiy dispers gruntlar sinfi RST O`z 25100-95 bo`yicha loyli gruntlar tavsifi;
- 3) laminar filtratsiya qonuni;
- 4) grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi. Gruntning o`z og`irligidan kuchlanishi;
- 5) grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi. To`plangan kuchdan kuchlanish;
- 6) grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi. Teng tarqalgan yuk ta'siridan kuchlanish. Burchakdagi nuqtalar usuli;
- 7) gruntlarning filtratsion konsolidatsiyasi. Konsolidatsiya darajasi. Vaqt davomida cho`kishni aniqlash;
- 8) qiyaliklarning ustivorligi, integral va differensial usullar yordamida qiyaliklarning ustivorlik darajasini baholash;
- 9) gruntning tirgovich devorlarga bosimi. Gruntning aktiv va passiv bosimini aniqlash.

Gruntlar mexanikasi - umumiy mexanika qismi bo`lib, tabiiy toshloq va dispers jismlarni o`rganadi. U geologiya fanining matematik sohasidir.

Gruntlar mexanikasi quyidagilarni o`rganadi: grunt da kuchlanishlarning tarqalish qonuniyatlarini; deformatsiyalanish qonuniyatlarini; zaminning ko`tarish qobiliyatini va deformatsiyalanishini baholash usullarini; gruntlarning fizik-mexanik xossalarini; tabiiy va sun'iy qiyaliklarning ustivorligini va to`siqlarga grunt bosimini aniqlash usullarini.

Gruntlarga ichida yuklanish natijasida qayishqoq va qoldiq deformatsiyalar hosil bo`ladigan tabiiy dispers jismlar sifatida qaraladi.

Gruntlar mexanikasining asosiy masalalari:

- Birinchi masala: "Asosiy qonuniyatlarini belgilash" - g`ovaklik qonunlarini tadqiqoti ya'ni gruntlarni yaxlit jismlardan farqlovchi hamda tashqi ta'sirlar (bosim, sio`quv, surilish va b.) ostidagi dispers materiallar sifatidagi holatini belgilovchi qonunlarni aniqlash.

Juda katta ahamiyatga ega masala - gruntlarni hisobiy xususiyatlari qiymatini aniqlash, qaysilarning soniy qiymati hodisalarni sonini belgilaydi.

Gruntlarning dispers jismlar sifatidagi asosiy xususiyatlaridan biri - bu siqiluvchanligi. Uni bosim va g`ovaklik koeffitsiyenti orasidagi bog`lanish yoki kompressiyaga qaramligi hamda zichlanish qonuni tafsialaydi.

Gruntlarni yumshoq tog` jismlari sifatidagi ikkinchi o`ziga xos xususiyati - bu laminar filtratsiya qonunida aniq ko`rsatilgan yilarni ayniqsa muhim hususiyatiy - ularni tashkil etuvchi zarrachalarni kattaligi normal bosimga bog`liq bo`lgan o`zaro ishqalanishi.

Ayniqsa sochiluvchan gruntlarni surilishga nisbatan chekli qarshiligining asosiy qismini hosil bo`lishiga ichki ishqalanish sababchi bo`ladi. Bu qarshilik, o`z navbatida, gruntlarni mustahkamligi, turg`unligi va ihotalarga bosimini hisoblashda asosiy omillardan bo`ladi. Nihoyat, maydalangan dispers jism ko`rinishidagi gruntlarning to`rtinchi, o`ziga xos xususiyati - bu yengil yuk ta'sirida gruntlarda hosil bo`ladigan qoldiq deformatsiyalarni mavjudligidir.

Gruntlar mexanikasining muhim muammolaridan biri - bu gruntlarni hisobiy xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqishdir, chunki xususiyatlarni to`g`ri aniqlanganligiga barcha hisoblashlar aniqligi bog`liq bo`ladi.

- Gruntning o`z og`irligi va tashqi kuchlar ta'siridagi kuchlanishli - deformatsiyalangan holatini tekshirish masalasi gruntlar mexanikasining eng asosiy masalasi bo`lib, uni ixotani turli xillari uchun xal qilish qurilish amaliyotida yuzasining faqat bir qismi yuklangan grunt dagi yuklanishlarni taqsimlanishini juda katta ahamiyatga ega vaqt o`tishi bilan yuklanish holatini o`zgarishi, qanday sharoitlarda chegaraviy holatlar yuzaga keladi,

nimalardan so'ng grunt massivining yo'l qo'yib buzilishin hosil bo'ladi. Ayniqsa, gruntlar deformatsiyalarini aniqlash masalalari katta ahamiyatga ega, ulardan: deformatsiyaning umumiy va alohida turlari qayishqoq va qoldiq bo'yicha miqdorini aniqlashini, deformatsiyalarni vaqt o'tishi bilan o'zgarishini; inshootning har xil qismlari ostidagi deformatsiya (cho'kish)lari farqini.

- Gruntlar massivini mustahkamligi va turg'unligi, hamda gruntlarni ihotaga bosimi haqidagi masalalarini ishlab chiqish chekli muvozanat umumiy nazariyasining xususiy masalasi bo'lib, muhim amaliy ahamiyatga ega.

Gruntlar quyidagi belgilarga ko'ra tasniflanadi:

- sinf — tuzilish bo'yicha bog'lanishlarning umumiy xususiyatiga ko'ra;
- guruh — tuzilish bo'yicha bog'lanishlar xususiyatiga ko'ra (ularning mustahamligini ham hisobga olgan holda);
- kichik guruh hosil bo'lish sababi va sharoitlariga ko'ra;
- tur — moddiy tarkibiga ko'ra;
- ko'rinish — gruntlarning nomlari bo'yicha (zarralarning o'lchamlari va xossa ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda);
- xili — gruntlarning moddiy tarkibi, xossalari va tuzilishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha).

Tabiiy kukun gruntlar — suv kolloid va mexanik tuzilma bog'lanishli gruntlar sinfini guruhlariga, kichiq guruhlariga, turlarga, ko'rinishlarga va xillarga 1-jadvalga mos tarzda ajratiladi.

Gruntlarning nomlari o'rnatilgan tartibda qabul qilingan mahalliy stratigrafik tuzilmalarga mos tarzda ularning geologik yoshi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim.

Gruntlarning ushbu standartda ko'zda tutilgan xillari bo'yicha tavsifnomalariga ilmiy-texnikaviy ishlanmalar natijasida xillarni ajratish uchun yangi miqdoriy mezonlar hosil bo'lgan hollarda qo'shimchalar.

Gruntlar — bu ko'p tarkibli va xilma-xil geologik tizimdan hamda insonning muhandisiy — xo'jalik faoliyati ob'ektidan iborat bo'lgan tog' jinslari, tuproq, texnogen tuzilmalar.

Gruntlar quyidagi vazifalarni mumkin:

- 1) bino va qurilmalar poydevori material;
- 2) qurilmalarni joylashtirish uchun material;
- 3) qurilmalarning o'zlariga material.

Toshloq grunt - bitta yoki bir nechta ma'danlarning kristallitlaridan tashkil topib, kristallizatsiyalashgan tur qattiq tuzilma bog'lanishlarga ega bo'lgan grunt.

Grunt teksturasi - gruntni tashkil qiluvchi unsurlarning (qatlamdorligi,

darzdorligi va b.) fazaviy joylashuvi.

1-jadval

Sinf tabiiy kukun gruntlar

Sinf	Guruh	Kichik guruh	Tur	Ko`rinish	Xil
Kukun (mexanikaviy va suv kolloid to`zilma bog`kanishi)	Bog`lanishsiz	Cho`kma	Ma`danли	Silikatli	Loyli gruntlar
				Karbonatli	
				Temirli	
				Polima`danli	
Ma`danli	Organik	Organik-ma`danli	Balchiqlar, sapropellar va torflangan gruntlar	Torflar va boshqalar	Yirik siniq gruntlar va qumlar

Farq qiladi: 1. Donadorlik tarkibi bo`yicha (yirik-siniq gruntlar va qumlar);  
 2. Yumshoqlik soni va donadorlik tarkibi bo`yicha (loyli gruntlar va balchiqlar);  
 3. Donadorlik tarkibining (qumning) nobirjinslilik darajasi;  
 4. Oquvchanlik ko`rsatkichi (loyli gruntlar); 5. Yuksiz shishish nisbiy deformatsiyasi (loyli gruntlar); 6. Cho`kuvchanlik nisbiy deformatsiyasi (loyli gruntlar); 7. Suvga to`yinish ko`rsatkichi (yirik-siniq gruntlar va qumlar); 8. G`ovariik ko`rsatkichi (qumlar); 9. Zichlik darajasi; (qumlar); 10. Shamollaganlik ko`rsatkichi. (yirik-siniq gruntlar); 11. Ishqalanganlik ko`rsatkichi (yirik-siniq gruntlar); 12. Organik moddalarga nisbiy egaligi (qumlar va loyli gruntlar); 13. Chirish darajasi (torflar); 14. Kuldorlik darajasi (torflar); 15. Sho`rlik darajasi; 16. Shishish nisbiy deformatsiyasi; 17. Harorat.

Izoh - tuproqlar (shag`alli, yog`ochli, qumli, loyli, torfli va b.) gruntning tegishli turi va xili sifatida belgilari majmuasi bo`yicha farqlanadi.

Yarimtoshloq grunt - bitta yoki bir nechta ma'danlardan tashkil topib, sementatsiyaviy tur qattiq tuzilma bog`lanishlarga ega bo`lgan grunt.

Toshloq va yarimtoshloq gruntlar orasidagi shartli chegara bir o`qli siqiluvchan mustahkamlik bo`yicha qabul qilinadi (toshloq gruntlar uchun  $R_c \geq 5$  MPa; yarimtoshloq gruntlar uchun  $R_c < 5$  MPa).

Kukun grunt - har xil o`lchamli, bir-birlari bilan zaif bog`langan ayrim-

ayrim ma'dan zarralardan (donalardan) tashkil topgan grunt; toshloq, gruntlarning shamol ta'sirida nurashi hamda nurash mahsulotlarining suv yoki shamol tufayli ko'chishi va ularning jamlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Grunt tuzilmasi - grunt tarkibiy qismlarining morfologik (zarralarning o'lchami, shakli, ularning miqdoriy nisbatlari), geometrik (tuzilma unsurlarining fazoviy joylashuvi) hamda energiyaviy belgilari (tuzilma bog'lanishlari turi va tuzilmaning umumiy energiyasi) va tarkibi miqdoriy nisbati, ularning tarkibiy qismlarini o'zaro ta'siri majmui bilan tavsiflanuvchi fazoviy joylashuvi.

Gruntning moddiy tarkibi - qattiq, suyuq va gzsimon tashkil qiluvchilarning kimyoviy-ma'dan tarkibini tavsiflovchi toifa.

Organik modda - o'simlik va hayvon organizmlarining parchalanuvchi qoldiqlari, shuningdek, ularning parchalanishi va o'zgarishi mahsulotlari ko'rinishida grunt tarkibiga kiruvchi organik birikmalar.

Loyli grunt - yumshoqlik soni  $I_r \geq 1$  bo'lgan bog'langan ma'dan grunt. Qum - o'lchamlari 2 mm dan kichik bo'lgan zarralarning massasi 50 % ( $I_r = 1$ ) dan ortiq bo'lgan bog'lanishsiz ma'dan grunt.

Balchiq – o'simlik qoldiqlari gumus ko'rinishidagi organik moddaga ega bo'lgan aksariyat dengiz havzalaridagi suvga to'yingan zamonaviy cho'kindi. Odatda balchiqning yuqori qatlamlari  $e \geq 0,9$  g'ovaklik doyimiylikiga,  $JL > 1$  o'zgaruvchan zichlikka ega bo'lib, o'lchami 0,01 mm dan kichik bo'lgan zarralar miqdori massa jihatidan 30-50% ni tashkil etadi.

Sapropel – o'simlik va hayvonot organizmlarining chirigan mahsulotlaridan turg'un suv havzalari tubida hosil bo'lgan gumus va o'simlik qoldiqlari ko'rinishida (massa jihatidan) 10% dan ortiq organik moddaga ega bo'lgan chuchuk suvdagi balchiq.

Torf – botqoqli o'simliklarning kislorod yetishmayotgan holatda yuqori namlik sharoitida tabiiy o'lishi va qisman chirishi natijasida hosil bo'lgan hamda (massa jihatidan) 50% va undan ortiq organik moddalarga ega bo'lgan organik grunt.

Torfli grunt - 10 dan 50% gacha (massa jihatidan) torfga ega bo'lgan qum va loyli grunt.

Tuproq - biogen va atmosferaviy omillar ta'sirida vujudga kelgan kukun gruntning sirtqi hosildor qatlami.

Shishgan grunt - suv yoki boshqa suyuqlik bilan ho'llanganda hajmi ortadigan va shishish nisbiy deformatsiyasi (erkin shishish sharoitlarida)

$\xi_{sv} \geq 0,04$  bo'lgan grunt.

Cho'kuvchi grunt - tashqi yuklama va shaxsiy og'irligi suv yoki boshqa

suyuqlik bilan ho'llanganda tik deformatsiyalanib, nisbiy cho'kish deformatsiyasi  $\xi_{sv} \geq 0,01$  bo'ladigan grunt.

Ko'pchiydigan grunt - erigan holatdan muzlash holatiga o'tishda muz kristallari hosil bo'lishi hisobiga hajmi kattalashuvchi va sovuqdan ko'pchish deformatsiyasi  $\xi_{sv} \geq 0,01$  bo'lgan grunt.

Muzlagan grunt - manfiy yoki nol haroratga ega bo'lgan, o'z tarkibida ko'rinarli muz kiritmalariga va (yoki) muz - sementga ega bo'lgan, hamda kriogen tuzilma bog'lanishlar bilan tavsiflanuvchi grunt.

Ko'pyillik muzlagan grunt (sinonim - umrbod muzlagan grunt) - uch va undan ortiq yillar davomida muttasil muzlagan holda bo'ladigan grunt.

Fasliy muzlovchi grunt – davriy ravishda sovuq fasl davomida muzlagan holatda o'lovchi grunt.

Sovuq grunt - manfiy haroratga ega bo'lgan va o'z tarkibida muzga hamda muzlamagan suvga ega bo'lmagan toshloq grunt.

Sochiluvchan muzlagan grunt – sinonimi – "quruq muzloq" – manfiy haroratli, lekin muz bilan sementlanmagan va tutinish kuchlariga ega bo'lmagan yirik bo'lakli va qumli grunt.

Sovigan grunt – manfiy harorati ularning muzlashi boshlanishi haroratidan yuqori bo'lgan muzli yirik bo'lakli qumli va loyli gruntlar.

Muzlagan ko'pchigan grunt – eriganida o'zining hajmini kichraytiradigan kukunli grunt.

Muzlagan qattiq grunt – muz qattiq sementlagan, nisbatan mo'rt, yemirilish hamda amalda tashqi yuklama ta'sirida siqilmaslik bilan tavsiflanuvchi kukun grunt.

Muzlagan yumshoq grunt - muz sementlagan, lekin qovushqoqlik xossalriga va tashqi yuklama ta'sirida siqiluvchanlikka ega bo'lgan kukun grunt.

Muzlashning (erishning) boshlanish harorati  $T_{bf}$  ( $T_h$ ) – grunt g'ovaklarida muz hosil bo'lishi (yo'qolishi) boshlanadigan harorat,  $^{\circ}C$ .

Gruntning kriogen tuzilma bog'lanishlari – manfiy haroratda muzning sementlashi natijasida nam kukun va darzli toshloq gruntlarda yuzaga keluvchi kristallanish bog'lanishlari.

Kriogen tarkibiy tuzilishi – muzloq gruntning shakllari va o'lchamlari turlicha bo'lgan muz kiritmalar va muz-sementlarning yo'nalishi, nisbiy joylashuvi va taqsimlanishi bilan bog'liq joylashuvi belgilari majmuasi.

Muz – (sinonimi – muz grunt) – 10% dan (hajmi bo'yicha) ortiq bo'lmagan siniq materiallar va organik moddalar kiritmalari bo'lishi mumkin bo'lgan muz kristallaridan tashkil topgan, kriogen tuzilma bog'lanishli tabiiy uyushmalar.

Texnogen gruntlar – insonning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati



natijasida o'zgargan va ko'chirilgan tabiiy gruntlar va antropogen uyushmalar.

Antropogen uyushmalar – insonning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati natijasida tabiiy ma'dan yoki organik xom ashyo tarkibining, tuzilishining va tarkibiy tuzilishining tub o'zgarishlariga olib kelgan qattiq chiqindilar.

Tabiiy ko'chgan uyushmalar – o'zlarining tabiiy joylaridan ko'chirilgan, ularni ko'chirish jarayonida qisman qayta ishlangan tabiiy gruntlar.

Tabiiy joylashuv sharoitlarida o'zgargan tabiiy uyushmalar – kimyoviy tarkibi ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari kamida 15 % ga o'zgargan tabiiy gruntlar.

Fizikaviy ta'sir natijasida o'zgargan gruntlar – texnogen ta'sir (zichlash, muzlatish, issiqlik ta'siri va b.) tuzilishini va fazoviy tarkibini o'zgartiradigan tabiiy gruntlar.

Kimyoviy-fizikaviy ta'sir natijasida o'zgargan gruntlar – texnogen ta'sir moddiy tarkibini, tuzilishini va moddiy tuzilishini o'zgartiradigan tarkibiy gruntlar.

To'kma gruntlar – naqliyot vositalari, portlatishdan foydalanish orqali ko'chiriladigan va jamlanadigan texnogen gruntlar.

Yuzama gruntlar – gidromexanikalash vositalari yordamida ko'chiriladigan va jamlanadigan texnogen gruntlar.

Maishiy chiqindilar – insonning maishiy faoliyati natijasida hosil bo'lgan qattiq chiqindilar.

Sanoat chiqindilari – tabiiy kelib chiqishga ega bo'lgan materiallarni kimyoviy va termik o'zgartirishlar natijasida hosil qilingan ishlab chiqarishning qattiq chiqindilari.

Toshqollar – tog' jinlarini yoquvda hosil bo'ladigan kimyoviy va termik o'zgartirishlar mahsulotlari.

Shlamlar – tog'-boyituv, kimyo va ba'zi bir boshqa tur ishlab chiqarishlarda hosil bo'ladigan yuqori darajada kukunlashgan materiallar.

Kullar - qattik yoqilg'ini yondirish mahsulotlari.

Kultoshqollar – tog' jinlarini kompleks termik ishlov va qattiq yoqilg'ini yoqish mahsulotlari.

## GRUNTLAR MEXANIKASI FANIDAN AMALIYOT MASHGULOTLARINING MAVZULARI

### 1- mavzu. Tabiiy dispers gruntlar sinfi. rst uz 25100-95 bo`yicha qumlar tavsifi

#### 1. Granulometrik tarkibi bo`yicha

B10-jadval

Gruntlarning turlari	Donalar, zarralar o`lchamlari, d, mm	Donalar, o`zarralar miqdori, massalari bo`yicha % da
Yirik bo`laklilar: - xarsang tosh (ko`pchiligi palaxsa tosh)	> 200	> 50
- shag`al (silliqlanmagan chaqmoq shag`al) Siniq shag`al	>10	> 50
Qumlar:	> 2	> 50
- shag`alsimon	> 2	> 25
- yirik	> 0,50	> 50
- o`rtacha yiriklikda	> 0,25	> 50
- mayda	> 0,10	≥ 75
- changsimon	> 0,10	< 75

#### 2. Suvga tuyinish koeffitsiyenti bo`yicha

B17-jadval

Gruntlarning xillari	Suvga tuyinish doimiysi $S_r$ , d.e.
Suvga tuyinish kichik darajada	0 – 0,50
Suvga tuyinish rta darajada	0,50 – 0,80
Suvga tuyingan	0,80 – 1

3. Donadorlik tarkibining nobirjinslilik darajasi  $C_u$  ga qarab, yirik bo`lakli gruntlar va qumlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- bir jinsli grunt  $C_u \leq 3$ ;
- nobir jins grunt  $C_u \geq 3$ .

#### 4. G`ovaklik koeffitsiyenti bo`yicha

B18-jadval

Qumlarning turlari	G`ovaklik doimiysi, e		
	Shag`alli, yirik va o`rtacha yiriklikdagi qumlar	Mayda qumlar	Changli qumlar
Zich	< 0,55	< 0,60	< 0,60
O`rtacha zichlikdagi	0,55 – 0,70	0,60 – 0,75	0,60 – 0,80
G`ovak	> 0,70	> 0,75	> 0,80

**Masala.** Berilgan quduq va qatlam uchun  $e$  va  $S_r$  bo'yicha gruntning klassifikatsiya qilingan (ilova, 1-jadval).

### Nazorat savollari

1. Grunt va uning xususiyatlari haqida tushuncha. Gruntning fazali tarkibi.
2. Gruntning mineralogik va kimyoviy tarkibi.
3. Gruntning fizik xossalari kursatkichlari.
4. Granulometriko`tarkib bo`yicha qumli gruntlar qanday?
5. G`ovaklik koeffitsiyentiga ko`ra qumlarining turlari?
6. Suvga to`yiganlik bo`yicha qumlarni turlarga ajratilishi?

## 2 - mavzu. Tabiiy dispers gruntlar sinfi. $r_{st}$ z 25100-95 bo`yicha loyli gruntlar tavsifi

### 1. Plastiklik soni $I_r$ bo`yicha

B11-jadval

Loyli gruntning xillari	Yumshoqlik soni, $I_r$
Loyli qum	1 – 7
Qumli loy	7 – 17
Loy	> 17

### 2. Kiritmalarning mavjudligi bo`yicha gruntlarni B13 jadval bo`yicha ajratilishi

Loyli gruntning xillari	Massa bo`yicha 2 mm dan yirikroq zarralarning miqdori
Shag`alli loy qum, qum loy va loy Shag`alsimon	15 – 25
loy qum, qum loy va loy	25 - 50

### 3. Granulometrik tarkibi va plastiklik soni bo`yicha

B12-jadval

Loyli gruntning xillari	Yumshoqlik soni $I_r$	Qum zarralarning (2 - 0,5 mm) massa bo`yicha foizi, %
Loyli qum:		
- qumli	1 – 7	$\geq 50$
- changli	1 – 7	$< 50$
Qumli loy:		
- yengil qumli	7 – 12	$\geq 40$
- yengil changli	7 -12	$< 40$
- og`ir qumli	12 – 17	$\geq 40$
- og`ir changli	12 – 17	$< 40$
Loy:		
- yengil qumli	17 – 27	$\geq 40$
- yengil changli	17 – 27	$< 40$
- og`ir	> 27	reglamentlanmagan

#### 4. Oquvchanlik ko`rsatkichi IL bo`yicha

B14-jadval

Loyli gruntlarning turlari	Oquvchanlik ko`rsatkichi $I_L$
Loyli qum: - qattiq - yumshoq - oquvchan	< 0 0 – 1 > 1
Qum loy va loylar: - qattiq - yarim qattiq - quyuq oquvchan - yumshoq oquvchan - oquvchan yumshoq - oquvchan	< 0 0 – 0,25 0,25 – 0,50 0,50 – 0,75 0,75 – 1 > 1

**Masala.** Berilgan skvajina va qatlam uchun  $I_p$  va  $I_L$  bo`yicha gruntning tavsiflang (ilova, 2-jadval).

#### Nazorat savollari

1. Gruntning tuzilmasi va teksturasi deb nimaga aytiladi?
2. Loyli va qumli gruntlarning o`ziga xos tuzilmalari?
3. Qayishqoqlik soni  $I_p$  ga ko`ra loyli gruntlar turlari.
4. Granulometrik tarkibi va qayishqoqlik soni bo`yicha gruntlar qanday turlarga bo`linadi?
5.  $I_L$  oquvchanlik ko`rsatkichlari bo`yicha loyli gruntlar qanday turlarga bo`linadi?
6. Loyli gruntlarda qanday bog`lanishlar mavjud?

### 3 - mavzu. Laminar filtratsiya qonuni

Grunt g`ovaklarida suv karakati 2 xil bo`ladi: migratsiya va filtratsiya. Migratsiya  $f$  bu g`ovakli suvning kapillyar va adsorbsiya kuchlari, osmatik bosim, gruntning qo`shni nuqtalaridagi namlik, harorat hamda elektrik potensial farqlari va fizik-kimyoviy salohiyatga ega kuchlar ta'siridagi karakati. Filtratsiya - bu suyuqlikning g`ovakli muhitda mexanik kuchlar ta'siridagi oqishi. Laminar filtratsiya qonuni deb, filtratsiya tezligining gidravlik gradiyenti  $V_\phi$  ga eksperimental bog`liqligi.

$$v_\phi = k_\phi i$$

bunda  $K_\phi$  - filtratsiya koeffitsiyenti.

1. Pezometrik balandlik. Bosim 1.10-rasm, 1.29, 1.30 formulalar /1/
2. Suyuklikdagi bosim. Sarf 1.11-rasm, 1.31, 1.32 formulalar /1/

- |                                      |   |
|--------------------------------------|---|
| 3. Darsi konuni                      | 1.33 - 1.37 formulalar /1/                                    |
| 4. Hidrodinamika. Hidrodinamik bosim | 1.12-rasm, 1.48 formula, 1.13-rasm, 1.50-1.52 formulalar /1/. |

**1-masala.** Hidravlik gradiyent va bosim aniqlansin, agar filtratsiya yo`li uzunligi va suv bosimining yo`qotilishi miqdori ma'lum bo`lsa (ilova, 3-jadval).

**2-masala.** Filtratsiya koeffitsiyentini topish va berilgan filtratsiya tezligida grunt turini aniqlash (ilova, 3-jadval).

#### **Nazorat savollari**

1. Pezometrik balandlik deb nimaga aytiladi?
2. Pezometrik bosim deb nimaga aytiladi?
3. Suv bosimi deb nimaga aytiladi?
4. Hidrostatik bosim deb nimaga aytiladi?
5. Suv sarfi deb nimaga aytiladi?
6. Suv sarfi o`lchamlari nimaga teng?
7. Darsi qonuni ta'rifi?
8. Hidravlik gradiyent deb nimaga aytiladi?
9. Hidrodinamik bosim deb nimaga aytiladi?

#### **4 - mavzu. Grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi. Gruntning o`z og`irligidan kuchlanish**

Grunt massivi tekisligi gorizontal bo`lganda, og`irligidan kelib chiqadigan kuchlanishlar ko`rilayotgan element ustida joylashgan grunt ustunining og`irligiga bog`liq, tagidan keladigan reaksiya esa element og`irligiga ortiqroq bo`ladi. Bir tekisda yuklanishda grunt ustunining ko`ndalang kengayishi nolga teng. Birjinsli massivda barcha yonma-yon joylashgan ustunlar bir xil vertikal deformatsiyalarga yo`liqadi, bir-biriga nisbatan siljimaydi hamda ularga urinma yuklanishlar ta'sir etmaydi.

Demak, o`z vaznidan kelib chiqadigan yuklanishlar grunt qatlamida chuqurlik bilan birga chiziqli o`sadi.

Erkin suv bilan to`yingan grunt massivini kuchlanganlik holatini tadqiq etish jarayonida samarali va neytral kuchlanishlar aniqlanadi.

Grunt massividagi kuchlanishlar ikki ko`rinishda bo`ladi: gruntning o`z og`irligidan  $\sigma_{zg}$  va tashqi yuk ta'siridan  $\sigma_{zp}$ . Ular formulalar yordamida yoki bevosita o`lchash natijasida aniqlanadi.

Umumiy holda gruntning o`z og`irligidan kuchlanish  $\sigma_{zg}$  quyidagi formula orqali topiladi:

$$\sigma_{zg} = \sum_1^n \gamma_i h_i$$

bu yerda  $n$  – grunt qatlamlari soni;  $\gamma_i$  - solishtirma og'irligi (i-grunt qatlami);

$h_i$  – i-grunt qatlamining qalinligi.

Hisobiy holatlar: bir xil grunt qatlami, kar xil grunt qatlamlari, suvning ko'tarish qobiliyatini hisobga olish, suvbardosh qatlamga suvning gidrostatik bosimini hisobga olish.

Er osti suv sathidan (UPV) past va suvbardosh qatlamdan yuqori joylashgan gruntning solishtirma og'irligi suvning ko'tarish ta'sirini hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$\gamma_{sh} = \gamma - \gamma_w.$$

Suvbardosh qatlamda shu qatlam ustida joylashgan suv qatlamining bosimi hisobga olinadi.

### 1-misol.

Quyidagi grunt qatlamlari uchun gruntning o'z og'irligidan kuchlanishni aniqlash kerak:

1- qatlam - qumli loy (suglinok)  $\gamma_1 = 19,6 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_1 = 2,4 \text{ m}$ );

2- qatlam - loy (glina) ( $\gamma_2 = 20 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_2 = 2,2 \text{ m}$ );

3- qatlam - qum (pesok) ( $\gamma_3 = 19 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_3 = 1,6 \text{ m}$ );

4- qatlam - loyli qum (supes) ( $\gamma_4 = 20,1 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_4 = 1,8 \text{ m}$ ).

Yechim:

$h = 0$  bo'lganda, 1-qatlam ustidagi kuchlanish  $\sigma_{zg} = 0$ ;


1-qatlam tagidagi kuchlanish  $\sigma_{zg1} = 19,6 \times 2,4 = 47 \text{ kPa}$ ;

2-qatlam tagidagi kuchlanish  $\sigma_{zg2} = 47 + 20 \times 2,2 = 91 \text{ kPa}$ ;

3-qatlam tagidagi kuchlanish  $\sigma_{zg3} = 91 + 19,0 \times 1,6 = 121 \text{ kPa}$ ;

4-qatlam tagidagi kuchlanish  $\sigma_{zg4} = 121 + 20,1 \times 1,8 = 158 \text{ kPa}$

### Ep. 6<sub>zg</sub>



### 2 – misol.

Quyidagi grunt qatlamlari uchun gruntning o'z og'irligidan kuchlanish  $\sigma_{zg}$  ni aniqlash kerak:

1-qatlam – qum (pesok) ( $\gamma_1 = 19,1 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_1 = 2,0 \text{ m}$ );

2-qatlam – qum (pesok) ( $\gamma_2 = 19,6 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_2 = 2,2 \text{ m}$ );

3-qatlam – loyli qum (supes) ( $\gamma_3 = 18,0 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_3 = 2,5 \text{ m}$ );

4-qatlam – yarim qattiq loy (glina) ( $\gamma_4 = 20,2 \text{ kN/m}^3$ ,  $h_4 = 3,0 \text{ m}$ ).

Er osti suv sathi 2,4 m chuqurlikda joylashgan.

Yechim:

$h = 0$  bo'lganda, 1- qatlam ustidagi kuchlanish  $\sigma_{zg} = 0$ ;

1-qatlam tagidagi kuchlanish  $\sigma_{zg1} = 19,1 \times 2,0 = 38 \text{ kPa}$ .

Er osti suv sathi bo'yicha gruntdagi kuchlanish

$$\sigma_{zg2} = 38 + 19,6 \times 0,4 = 46 \text{ kPa};$$

2-qatlam tagidagi kuchlanish

$$\sigma_{zg2} = 146 + (19,6 - 10) \times (2,2 - 0,4) = 63 \text{ kPa};$$

3-qatlam tagidagi kuchlanish

$$\sigma_{zg3} = 63 + (18,0 - 10) \times 2,5 = 83 \text{ kPa}.$$

Suvbardosh loy ustida joylashgan suv qatlamining gidrostatik bosimi


$$\sigma_w = 10 \times (2,5 - 2,2 - 0,4) = 43 \text{ kPa};$$

4-qatlam ustidagi kuchlanish

$$\sigma_{zg4} = 83 + 43 = 126 \text{ kPa};$$

4-qatlam tagidagi kuchlanish

$$\sigma_{zg4} = 126 + 20,2 \times 3,0 = 187 \text{ kPa}.$$



**1 masala.** Ilovaning, 4-jadvalida berilgan variant bo'yicha gruntning o'z og'irligidan kuchlanish epyurasini chizing.

**2 masala.** Ilovaning, 4-jadvalida berilgan variant bo'yicha gruntning o'z og'irligidan kuchlanish epyurasini chizing.

#### **Nazorat savollari**

1. Umumiy hollarda gruntning o'z og'irligidan kelib chiqadigan kuchlanish qanday aniqlanadi?
2. Yer osti suvlari sathidan pastda joylashgan gruntlarning solishtirma og'irligi qanday aniqlanadi?
3. Gruntning o'z og'irligidan kelib chiqadigan kuchlanishni aniqlash jarayonidagi qaysi hollarda gidrostatik bosim hisobga olinadi?
4. Gruntning bir xil va har xil tarkibli qatlamida grunt og'irligidan kelib chiqqan kuchlanishlar epyuralari qanday shakllarga ega?
5. Suvning muallaqlik ta'sirini hisobga olganda, kuchlanish epyuralarining shakli?
6. Gruntning deformatsiyalar va kuchlanishlar orasidagi bog'lanishlar?

### **5-mavzu. Grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi. To'plangan kuchdan kuchlanish**

Yechim 1985 y. Bussinesk tomonidan fazoviy masala uchun topilgan.

Yuklangan maydon tomonlarining nisbati  $l/b < 5$  (10) bo'lganda, masala fazoviy hisoblanadi.

Masala sharti: to'plangan kuch  $R$  elastik yarim fazoviy yuzaga qo'yilgan grunt massivining har qanday nuqtadagi kuchlanishi va deformatsiyasini topish kerak.

Injenerlik hisoblarda chegaralovchi tekislikga parallel joylashgan



maydon bo`yicha ta'sir etuvchi kuchlanishlar qo`llaniladi:

$$\sigma_z = \frac{3P}{2\pi} \cdot \frac{z^3}{R^5}; \quad \tau_{zy} = \frac{3P}{2\pi} \cdot \frac{z^2 y}{R^5}; \quad \tau_{zx} = \frac{3P}{2\pi} \cdot \frac{z^2 x}{R^5}; \quad w_z = \frac{P}{\pi c R}$$

Bunda  $\sigma_z$  – normal siquvchi kuchlanish;  $\tau_{zy}$ ,  $\tau_{zx}$  - urinma kuchlanishlar;  $w_z$  - nuqtaning vertikal ko`chishi;  $s$  - gruntning elastik xossalarini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

$\sigma_z$  ning tabulyatsiyalangan ifodasi

$$\sigma_z = K \frac{P}{z^2},$$

bunda  $K$  - kuchlanish tarqalishi koeffitsiyenti.

Gruntning tarqatish xususiyati:


1) chuqurlashgan sari va kuch ta'sir etayotgan chizig`idan uzoqlashgan sari kuchlanish kamayadi;

2) chuqurlashish jarayonida gorizonttal epyuralar tekislanadi.

Bir necha kuch ta'sir etganda, kuchlarning o`zaro bog`liqmaslik tamoyili qo`llaniladi: har qaysi kuchdan alohida kuchlanish topiladi, keyin ular qo`shiladi.

$$\sigma_z = \sum K_i \frac{P_i}{z^2}$$

1. To`plangan kuch ta'siri (asosiy masala). Bussinesk yechimi:




$$\sigma_R = A \frac{\cos \beta}{R^2} ; A = \frac{3}{2} \cdot \frac{P}{\pi} ,$$

bu yerda A – proporsionallik koeffitsiyenti;

$\sigma_R$  – normal kuchlanish.

2. To`plangan kuch ta'siridan gorizontal maydonchadagi siquvchi kuchlanishni aniqlash:




$$\sigma_z = K \frac{P}{Z^2} ;$$

$$K = \int \left( \frac{r}{z} \right) ,$$

bu yerda K - kuchlanishlar tarqalishi koeffitsiyenti.


3. Bir nechta to`plangan kuchlar ta'siri:



$$\sigma_z = \sum K_i \frac{P_i}{Z^2} = K_1 \frac{P_1}{Z^2} + K_2 \frac{P_2}{Z^2} + K_3 \frac{P_3}{Z^2}$$

**1 – misol**

Grunt yuzasida ta'sir etuvchi to'plangan kuch  $N = 15 \text{ kN}$  dan  $M$  nuqtada hosil bo'ladigan kuchlanishni aniqlash kerak.  $M$  nuqta  $z = 2 \text{ m}$  chuqurlikda joylashgan, kuch ta'sir etuvchi o'qdan masofa  $r = 4 \text{ m}$ .



Yechim:

Quyidagi nisbatni aniqlaymiz:


$$r/z = 4/2 = 2.$$

Shu nisbat  $r/z = 2$  uchun koeffitsiyent  $K = 0,0085$ .  $M$  nuqtadagi kuchlanish Bussinesk formulasi bo'yicha topiladi:

$$\sigma_z = K \frac{P}{Z^2} = 0,0085 \frac{15}{4} = 0,0319 \text{ kPa.}$$

## 2 – misol.

Grunt yuzasida ta'sir etuvchi uchta to'plangan kuchdan  $N_1 = 10 \text{ kN}$ ,  $N_2 = 5 \text{ kN}$ ,  $N_3 = 15 \text{ kN}$  nuqtadagi kuchlanishni aniqlash kerak.



Yechim:

Har bitta kuch uchun  $r/z$  ni topamiz:

$$r_1/z = 5/2,5 = 2; \quad r_2/z = 1/2,5 = 0,4 \quad r_3/z = 2,2/2,5 = 0,88.$$

Koeffitsiyent  $K$  qiymatlari:  $K_1 = 0,0085$ ;  $K_2 = 0,3294$ ;  $K_3 = 0,1144$ .  $M$  nuqtadagi kuchlanish nuqtadagi kuchlanish

$$\sigma_z = \sum K_i \frac{P_i}{Z^2} = \frac{1}{2,5^2} (0,0085 \cdot 10 + 0,3294 \cdot 5 + 0,1144 \cdot 15) = 0,552 \text{ kPa.}$$

**1 – masala.** To'plangan kuch  $R$  o'qi bo'yicha ta'sir etuvchi kuchdan grunda hosil bo'luvchi vertikal normal kuchlanish epyurasi  $\sigma_z$  ni chizing. Berilgan  $P$ ,  $z$ ,  $K = 0,478$  (ilova, 5-jadval).

**2 – masala.** To'plangan kuch  $R$  ta'siridan grunda  $z$  chuqurlikda hosil buluvchi vertikal normal kuchlanish epyurasi  $\sigma_z$  ni chizing. Berilgan:  $R$ ,  $z$ ,  $r$  (ilova, 5-jadval).

### Nazorat savollari

1. Bir yerga to'plangan kuchdan kelib chiqadigan kuchlanishni aniqlash uchun Bussinesk formulasidagi "K" parametrining nomi?

2. Bussinesk formulasida nuqtaning joylashish chuqurligi va kuchlanishi orasidagi qanday boglanish mavjud?

3. Kuchning ta'sir chiziqidan uzoqlashgan sari bir joyga to'plangan kuchdan kelib chiqqan kuchlanish qanday o'zgaradi?

4. Bir nechta to'plangan kuchlar ta'siridan paydo bo'lgan kuchlanishlar qanday aniqlanadi?

5. Teng taqsimlangan kuchlanish va to'plangan kuchlar ta'siridan paydo bo'lgan kuchlanishlar epyuralari qanday shaklga ega?

### **6-mavzu. Grunt massivida kuchlanishlarning tarqalishi, teng tarqalgan yuk ta'siridan kuchlanish. burchakdagi nuqtalar usuli**

Burchak nuqtalari usuli orqali kuchlanishni aniqlash

Bu usul yordamida grunt massivining har bir nuqtasida kuchlanishni aniqlash mumkin. Usul mohiyati quyidagidan iborat: yuklangan maydon to'rtburchaklarga ajratiladi. Bunda kuchlanish aniqlanayotgan nuqta to'rtburchak uchida bo'lishi kerak. Buni bajarishda quyidagi hollar bo'lishi mumkin:

- a) nuqta to'g'ri to'rtburchak chegarasida joylashadi;
- b) nuqta to'rtburchak ichida joylashadi;
- v) nuqta to'rtburchakdan tashqarida joylashadi.

Kuchlanish tarqalishining har xil usullari

a) yuklangan maydon yuzasining ta'siri: bir xil intensivlikdagi ta'sir etuvchi yuk bilan yuklandan maydondagi kuchlanish maydon yuzasi oshgan sari ko'payadi;

b) poydevor konstruksiyasining ta'siri: bir xil intensivlikdagi ta'sir etuvchi yuk bilan yuklangan aloxida poydevor tagidagi kuchlanish tasmaimon poydevordagidan kam bo'ladi.

#### **Kuchlanish tarqalishining tekislik masalasi**

Agar yuklangan maydon o'lchamlarining nisbati  $l/b > 5$  (10) bo'lsa, bu kuchlanish tarqalishining tekislik masalasi deb hisoblanadi. Bunda kuchlanish faqat bir tekislikda aniqlanadi, perpendikulyar tekislikda o'zgarmas yoki nolga teng deb hisoblanadi. Kuchlanishni topish uchun Flaman usuli qo'llaniladi. Bu usul asosida chiziq bo'yicha ta'sir etuvchi yuk 1m uzunlikda to'plangan kuch bilan almashtiriladi, va shu kuchdan kuchlanishlar quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\sigma_z = \frac{2P}{\pi} \cdot \frac{z^3}{R^4}; \quad \sigma_y = \frac{2P}{\pi} \cdot \frac{zy^2}{R^4}; \quad \tau_{zy} = \frac{2P}{\pi} \cdot \frac{z^2 y}{R^4}.$$

Keyin yuklangan maydon eni bo'yicha kuchlanishlar qo'shiladi.

Yo'l bo'yicha tarqalgan yukdan kuchlanish quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$\sigma_z = \frac{q}{\pi} \left[ \beta_1 + \frac{1}{2} \sin 2\beta_1 - (\pm\beta_2) - \frac{1}{2} \sin(\pm 2\beta_2) \right];$$

$$\sigma_y = \frac{q}{\pi} \left[ \beta_1 - \frac{1}{2} \sin 2\beta_1 - (\pm\beta_2) + \frac{1}{2} \sin(\pm 2\beta_2) \right];$$

$$\tau_{zy} = \frac{q}{2\pi} (\cos 2\beta_2 - \cos 2\beta_1)$$

### Kuchlanish epyuralari. Teng kuchlanish epyuralari.

Gruntagi bosh kuchlanishlar:

$$\sigma_1 = \frac{q}{\pi} (2\beta + \sin 2\beta);$$

$$\sigma_3 = \frac{q}{\pi} (2\beta - \sin 2\beta)$$

Maksimal bosh kuchlanish  $\sigma_1$  ko`rinish burchagi  $2\beta$  bissektrisasi bo`yicha yo`nalgan bo`ladi, minimal bosh kuchlanish maksimal bosh kuchlanishga perpendikulyar yo`naladi. Keltirilgan formulalardan foydalanib va bosh kuchlanishlarning yo`nalishini hisobga olib, kuchlanish ellipslarini chizish mumkin.

Aniq yechim (Lyav A., 1935)

$$\sigma_z = \frac{P}{2\pi} \left[ \frac{lbz}{D} \cdot \frac{l^2 + b^2 + 2z^2}{D^2 z^2 + l^2 b^2} + \arcsin \left( \frac{lb}{\sqrt{l^2 + z^2} \sqrt{b^2 + z^2}} \right) \right] \cdot (D/2)^2 = l^2 + b^2 + z^2 = r^2$$


Taxminiy yechim:

yuklangan maydon markazi ostida (n.O)  $\sigma_{\text{я.о}} = \alpha_o \rho; \quad \alpha_o = \int \left( \frac{2z}{b}; \frac{l}{b} \right);$

yuklangan maydon burchagi ostida (n.S)  $\sigma_{\text{я.г.}} = \alpha_{\text{г.}} \rho; \quad \alpha_{\text{г.}} = \frac{1}{4} \int \left( \frac{z}{b}; \frac{l}{b} \right).$

#### 1-misol.

Grunt yuzasida ta'sir etuvchi  $p = 5 \text{ кН/м}^2$  intensivlikdagi teng tarqalgan yuk markazi ostida 1,5 m chuqurlikda joylashgan M nuqtadagi kuchlanishni aniqlash kerak. Yuklangan maydon o`lchamlari:  $b = 0,5 \text{ м}, l = 0,7 \text{ м}.$



Echim:

quyidagi nisbatlarni topamiz:  $2z/b = 2 \cdot 1,5/0,5 = 6$ ;

$l/b = 0,7/0,5 = 1,4$ ,

koeffitsiyent  $\alpha = 0,07$ .

Kuchlanishni quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$\sigma_{z,o} = \alpha \cdot p = 0,07 \cdot 5 = 0,35 \text{ kPa}$$

## 2-misol.

Intensivligi  $p = 10 \text{ kN/m}^2$  teng tarqalgan yuk ta'siridan burchakdan  $x = 1\text{m}$ ,  $y = 1\text{m}$  masofada va burchak ostida  $2\text{m}$  chuqurlikda joylashgan  $M$  nuqtada kuchlanishni aniqlash kerak.

Echim:

To'g'ri to'rtburchak ABCD to'rtta to'g'ri to'rtburchakga bo'linadi, bunda  $M$  nuqta har bir to'rtburchakning burchagida joylashadi.

Quyidagilarni hisobga olib:

$$l_1 = 5 - 1 = 4\text{m}; \quad b_1 = 1\text{m};$$

$$l_2 = 1\text{m}; \quad b_2 = 1\text{m};$$

$$l_3 = 4\text{m}; \quad b_3 = 1\text{m};$$

$$l_4 = 1\text{m}; \quad b_4 = 1\text{m};$$

$l/b$  nisbatini topamiz:  $l_1/b_1 = 4/1 = 4$ ;  $l_2/b_2 = 1/1 = 1$ ;  $l_3/b_3 = 4/1 = 4$ ;



$l_4/b_4 = 1/1 = 1$ .

Burchakdagi nuqtalar uchun

$$z/b_1 = 2/1 = 2; \quad z/b_2 = 2/1 = 2; \quad z/b_3 = 2/1 = 2; \quad z/b_4 = 2/1 = 2.$$

Koeffitsiyent  $\alpha$  qiymatlari:  $\alpha_1 = 0,54$ ;  $\alpha_2 = 0,336$ ;  $\alpha_3 = 0,54$ ;  $\alpha_4 = 0,336$ .

M nuqtadagi kuchlanish:  $\sigma_z = 0,25(0,54 + 0,336 + 0,54 + 0,336) \cdot 10 = 4,38$  kPa.



**1 – masala.** Teng tarqalgan yuk o`qi bo`yicha vertikal normal kuchlanish epyurasi  $\sigma_{z=0}$  ni chizing. Berilgan:  $R$ ,  $l/b$ ,  $b$ ,  $z$  (ilova, 5-jadval).

**2 – masala.** Teng tarqalgan yuk burchagi ostida vertikal normal kuchlanish epyurasi  $\sigma_{z=0}$  ni chizing. Berilgan  $R$ ,  $l/b$ ,  $b$ ,  $z$  (ilova, 5-jadval).

### Nazorat savollari

1. Gruntda teng taqsimlangan yuk ta'siridagi kuchlanishlarni hisoblash formulalari?

2. Kuchlanishlar tarqalishining o`q va burchak koeffitsiyenti nimaga bog`lanib aniqlanadi?

3. Kuchlanishlarni aniqlash burchak nuqtalari usulining mohiyati nimada?

4. Teng taqsimlangan yuk burchagi ostida normal vertikal kuchlanishlar epyuralari qanday shaklga ega?

5. Kuchlanishlar tarqalish koeffitsiyenti miqdoriga nimalar ta'sir etadi?



## 7-mavzu. Gruntlarning filtratsion konsolidatsiyasi. konsolidatsiya darajasi. Vaqt davomida cho`kishni aniqlash

Gruntlar uchun suv sarfalarini o`zgarishi filtratsiya qonuni bilan, g`ovaklik koeffitsiyentiga mutanosib bo`lgan grunt g`ovaklaridan suvni siqib chiqarganda grunt massasining namligini o`zgarishi esa zichlanish qonuni bilan belgilanadi.

Suv bilan to`yingan gruntlarning zichlanish tezligi grunt g`ovaklaridan suvni siqib chiqarish tezligiga bog`liq. Filtratsiya tenglamalariga asoslangan vaqt o`tishi bilan gruntlar cho`kishini asta sekin to`xtab borishi hamda gidrodinamik kuchlanishlarni tenglashtirish nazariyasi gruntlarni zichlanishning filtratsiyalanish nazariyasi (konsolidatsiya) deb ataladi. Bu nazariya vaqt bo`yicha cho`kishlar o`zgarishi (to`liq cho`kishning taxminan 0,75-0,9) egri chizig`ining asosiy qismini belgilaydi; bu qismdan ortiqi (tegishli tajribalar ko`rsatishicha), suvdagi bosimlar nolga yaqinlamadi, cho`kishlar esa o`saveradi. Filtratsiyali konsolidatsiya bilan bir vaqtda grunt skeletini sudraluvchanligi natijasidagi konsolidatsiya ham paydo bo`ladi, qaysinisi zichlanishning ikkilamchi ta'siri yoki ikkilamchi konsolidatsiya nomini olgan. Yonlamasiga kengayish imkoniyatiga ega bo`lmagan gorizontallik tekislik bo`ylab har tomonga cheksiz tarqalgan bir tekis taqsimlangan yuk ta'sirida grunt qatlamining siqilish jarayoni 1-rasmda ko`rsatilgan.

$\rho_z$  - gruntning qattiq zarralariga o`tkaziladigan samarali bosim;

$\rho_\omega$  - suvda paydo bo`ladigan bosim (g`ovakli va neytral bosim).


Grunt qatlami yuklanganda bosimning bir qismi grunt skeletiga ta'sir etadi, qolgani esa suvda bosim hosil qiladi, ya'ni

